

## **IMOM BUXORIYNING “AL-ADAB al-MUFRAD” (ADAB DURDONALARI) ASARIDAN OTA ONANI HURMAT QILISH TO ‘G ‘RISIDA**

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov

TATU Samarqand filiali

Telekomunikatsiya texnologiyalari fakulteti

23-05 guruh talabasi D.Sodiqova

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada Imom Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad” asaridan ota onani hurmat qilish va ularni asrab avaylash, ota-onani hurmat qilish to‘g‘risida hadislar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Din, ta’lim, tarbiya, axloq, odob, ruxiy tarbiya, hadislar, tavsif, shariat, oyatlar.

### **Аннотация:**

В этой статье представлены отрывки из произведения Имама Бухари “Ал-адаб ал-муфрад” об уважении к матери и их усыновлении об уважении к родителям хадисы освещены.



**Ключевые слова:** релегия, образование, воспитание, морал, этикет, духовное Воспитание, хадисы, описание, шариат, аяты.

### **Annotation:**

Father of Imam Bukhari’s “al-adab al-mufrad” in this article on respect for the mother and their adoption, respect for the parents Hadith are illuminated.

**Keywords:** religion, education, upbringing, ethics, etiquette, spiritual upbringing, hadiths, description, sharia, verses.

### **KIRISH:**

Mustaqillik yillarda manaviy merosni yangidan o‘rganish davlat siyosatining asosiyl ustuvor yo‘nalishlaridan biri bugungi barkamol avlod barcha bilimlar qatori dunyo xalqlari dinlaridan xam xabardor bo‘lmog‘I lozim.

Xozirgi paytda dunyoda 8 milliarddan ortiq axoli yashamoqda.Ular turli tuman xalqlarga mansub kishilardir.Dunyoda biror bir xalq yo'qki u yoki bu dingga etiqod qilmasin Dinlar esa xilma xil.Ayni paytda ular jaxon va milliy dinlarga bo'linadi.Islom ,xristianlik va buddaviylik dinlari -jaxon dinlari xisoblanadi.Jaxon dinlari uzlari paydo bulgan xududdagina amal qilib qolmay balki yer yuzining boshqa xududlarida xam keng tarqalgan.

**Buxoriy, Imom al-Buxoriy** (asl ismi **Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al Buxoriy**) (810.21.7, Buxoro — 870.31.8, Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'i) — islom olamining yirik mutafakkiri. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sulton deb ham yuritiladi.

Otasi Ismoil o'z davrining yetuk muhaddislaridan, Malik ibn Alasnning shogirdi va yaqinlaridan biri bo'lib, tijorat ishlari bilan shug'ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi validasi zimmasiga tushgan. U 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammadning hadislarini o'rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar — Doxiliy, Muhammad ibn Salom Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Azaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o'z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo'lishi va shundan keyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga otlanishi mumkin edi<sup>1</sup>.

Buxoriy 16 yoshga yetguncha, o'z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo'l oladi. 825-yil Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o'zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan olimlarning ilmiy yig'inida qatnashadi. 827-yil Madinaga boradi. Madinadagi mashhur ulamolardan Ibrohim ibn Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan muloqotda bo'lib, ulardan hadislar bo'yicha saboq oladi. Bu vaqtda Rasulullohning sahabalari, sahabalarning izdoshlari turli mamlakatga tarqab ketgan edilar. Shunday sharoitda Muhammadning hadislarini to'plash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilar edi.

Bir necha tarixchilarning ta'kidlashicha, Imom Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan safarlari 6 yil davom etgan. So'ng Basra, Kufa va Bag'dodga safar qiladi. Shom va Misrga o'tadi. Bundan

<sup>1</sup> Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.



tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishapur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo‘lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq oldi va hadislar to‘pladi.

Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo‘lgani "Al-jome' as-Sahih"dir. Undan tashqari tarixiy voqealar va shaxslarni chuqur tahlil qiladigan, hadis ilmining asoslardidan bo‘lgan ilmlarga oid bir qator o‘ta ahamiyatli kitoblar yozdi. Imom Buxoriyning ilmiy ahamiyati yuksak bo‘lgan bir nechta asarlar tasnif qildi: „Al-jome’ as-sahih“, „Al-adab al-mufrad“, „At-tarix al-kabir“, „At-tarix as-sag‘ir“, „At-tarix al-avsat“, „At-tafsir al-kabir“ „Birrul volidayn“, „Asmo as-sahoba“, „Kunyalar“ va boshqalar. Ular orasidagi „Al-jome’ as-sahih“ asari islom olamida Qur’ondan keyingi eng muhim manba sifatida e’zozlanuvchi manba hisoblanadi.

***Al-adab al-Mufrad*** (arabcha: المفرد الأدب — Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Buxoriy qalamiga mansub inson xulqini takomillashtirish haqidahadislar to‘plami

Kitobda Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning odob-axloqi to‘g‘risida hadislar bor. Asardan umumiy 1322 hadis joy olgan. Ushbu kitob Imom al-Buxoriyning boshqa kitobi - „Al-Jome’ as-Sahih“ hadislar to‘plamining soyasida qolgan deyiladi. Musulmon ulamolari o‘rtasida *al-Jome’ as-Sahih* va *Sahihi Muslim*, Islomning Qur’ondan keyingi eng haqiqiy kitoblari ekanligi to‘g‘risida yakdil fikr mavjud.

Garchi *al-Adab al-Mufrad* o‘zining muhim asari bo‘lgan bo‘lsa-da, Imom al-Buxoriy *al-Adab al-Mufrad* ichidagi hadislarning o‘zi uchun qo‘ygan *Al-Jome’ as-Sahihdek* juda qattiq va qat’iy haqiqiylik shartlariga javob berishini talab qilmagan. Biroq, hadis zanjirlarini *al-Adab al-Mufrad* ichida tushuntirgan, sharhlagan yoki izlab topgan va tasniflagan keyingi olimlarning asarlariga asoslanib, undagi rivoyatlarning aksariyati sahih yoki hech bo‘lmaganda kuchsiz deb topilgan. Imom Buxoriyning hadislar to‘plash borasidagi qo‘ygan shartlari boshqa muhaddislarning shartlaridan ko‘ra aniqroq bo‘lgani sababli „Al-jome’ as-sahih“ asari „Eng ishonchli hadislar to‘plagan“ nomiga sazovor bo‘lgan. Muhaddislар hadislarning roviylarini o‘zaro uchrashganlari ehtimoli mavjud bo‘lsa shunga kifoyalanishgan, ammo Imom Buxoriy eshitgan hadislarning roviylari o‘zaro uchrashganini alohida ko‘rgan guvohning e’tirofini ham shart qilib qo‘ygan. Bunday shart boshqa muhaddislarda uchramaydi. Hofiz ibn Xajar al-Asqaloniyning hisobiga ko‘ra „Al-jome’ as-sahih“dagi hadislarning soni 7397 tani tashkil etadi. Bular orasida takrorsizlari 2602 tani tashkil qiladi. Izohlar, roviylarning ixtilofi va ilovalarni qo‘silsa, kitobda keltirilgan hadislar soni 9082 taga yetadi.



Aynan Imom Buxoriy tufayli Movarounnahr hududida IX—XII asrlarda ko‘plab hadisshunoslik maktablari shakllandi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Hozirgi kunda olimning asarlari dunyoning o‘nlab tillariga tarjima qilingan va islom dunyosida uning ijodidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda foydalanib kelinadi. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ‘ib etishga kirishadi. Ul zotning bu sa’yu ko‘chishlari bu vaqtda Buxoroda hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan. Buxoriy yaratgan „Kitob al-favoid“ („Foydali ashyolar haqida kitob“), „Al-Jome’ al-kabiyr“ („Katta tayanch“), „Xalq af’ol alibod“, („Alloh bandalari ishlarining tabiat“), „Al-Musnad al-kabiyr“ („Katta tayanch“), „At-tafsir al-kabiyr“ („Katta tafsir“), „Kitob al-xiba“ („Xayr-ehson haqida kitob“) va boshqa asarlarning ba’zilari bizgacha yetib kelmagan, ba’zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma’lumotlar bor.

Buxoriyning boshqa asarlari orasida „Tafsir alQur’on“ („Qur’on tafsiri“) kitobini ham alohida ta’kidlash kerak. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida payg‘ambar (as) sunnatlari bo‘yicha asosiy darslik, qo‘llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olimu ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar<sup>2</sup>. Istiqlol sharofati bilan Buxoriyning o‘lmas merosi el-yurti bag‘riga qaytdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225-yilligini nishonlash to‘g‘risida“gi qarori (1997-yil 29-aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. 1998-yil 23-oktabrda Samarqandda yubiley to‘ytantalarini bo‘lib o‘tdi.

Alloma abadiy qo‘nim topgan Chelak tumanidagi Hartang qishlog‘ida ulkan yodgorlik majmui ochildi (qarang Buxoriy yodgorlik majmui). Buxoriyning boy ma’naviy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi tuzildi (1998-yil 4-noyabr; raisi Zohidillo Munavvarov). Jamg‘armaning asosiy vazifasi Qur’oni karim va Buxoriyning „al-Jome as-sahih“i tarjimalarining akademik nashrlarini tayyorlash, buyuk islomshunoslar ilmiy merosini tadqiq etish, diniy-falsafiy mavzularda ilmiy anjumanlar o‘tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an’alarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. 2000-yildan boshlab mazkur jamg‘arma o‘zining ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-

<sup>2</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/bola-ta-lim-tarbiyasida-ota-onaning-tutgan-o-rni>



adabiy „Imom alBuxoriy saboqlari“ jurnalini nashr eta boshladi. Jurnal xalqimizni milliy-ma’naviy merosimizdan bahramand etish, milliy, diniy qadriyatlarning sog‘lom idrok etilishiga yordam berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yan.

O‘zbekistonda Buxoriyning xotirasi munosib tarzda abadiylashtirilgan. Toshkent Islom institutiga Buxoriy nomi berilgan. Buxoriyning hayoti va ijodiga bag‘ishlab bir necha tillarda kitob-albom, 2 qismli film (1995), „Hadis ilmining sulton“ 4 qismli kinoqissa (1998) yaratilgan va u vafot etgan. Gunohlar jaholat qilmishidir. Gunoh qilguchi kishi kofir bo‘lmaydir, illo shirk keltirgan kishigina kofir bo‘ladir. Rasululloh bir gunoh qilgan kishiga:”Senda jaholatdan bor ekan”, -deganlar. Olloh oyati karimasida:”Olloh shirkni kechirmaydir, qolgan hamma narsani, xohlasa kechirishi mumkin”, -degan Sahoba Ma’ruf rivoyat qiladilar.”Rabza degan joyda Abu Zarrni o‘zi ham, quli ham chopon kiyib kelayotgan holatda ko‘rdim. Nechun bir xil kiyinib oldingizlar?”, -deb so‘radim<sup>3</sup>. Abu Zarr:”Men bir kishini(Bilolni), ey qora xotinning bolasi! -deb haqorat qildim. Rasululloh menga:”Ey Abu Zarr, onasini haqorat qilibsan, senda jaholatdan bor ekan”, -dedilar va yana :”Birodarlarining xizmatkoringizdir. Olloh taolo ularni sizlarning qo‘llaringizga topshirib qo‘yibdi. Kimniki birodari qo‘lida bo‘lsa, yeganidan yedirsin, kieganidan kiydirsin. Kuchi yetmaydigan ishga buyurmangiz, mobodo, buyursangiz, yonlarida yordamlashib ishlangiz”, -deb qo‘shib qo‘ydilar”, -dedi”.

### **Ota-onani ehtirom qilish borasida kelgan hadisi shariflar**

Inson yoshi o‘tgan sayin o‘zi ota-onan bo‘lib, farzandlarining oqibatlarini ko‘rgan sayin o‘z ota-onasining naqadar dono bo‘lganini sezib boraveradi. Shuning uchun yaxshilik qilishga eng ko‘p loyiq bo‘lgan zotlar – ota-onalar hisoblanadi.

Bu haqida Imom al-Buxoriy Kulayb ibn Manfaadan ushbu hadisni rivoyat qilganlar: Kulayb ibn Manfaa aytadilarki, «Mening bobom Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan so‘ragan ekanlar, demak, Kulayb ibn Manfaaning bobosi sahaba bo‘lgan. So‘radilarki, «Kimga yaxshilik qilay, ey Rasululloh?» Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: «Avval oningga, so‘ngra, otingga, keyin opasingingga, aka-ukingga. Va undan so‘ng qarindoshlaringga yaxshilik qilgin».

<sup>3</sup> Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.



Ushbu hadisi sharifda avval ona, so‘ng ota va keyin opa-singil va aka-ukalar zikr qilindi. Har birining o‘z o‘rni va fazli bor. Ona boshqa ba’zi ko‘rsatmalarda 3 karra ziyoda ekani zikr qilingan. Onaning 3 marta ziyoda qilinganiga sabab nima?

Hamasr ulamolarimizdan biri marhum doktor Mustafo Zuhayliy o‘zining «Tafsiri Munir» degan tafsir kitobida yuqoridagi oyati karimaning tafsirini shunday keltiradi: Ona otadan 3 karra ziyoda qilindi. Chunki 3ta ishda ona yolg‘iz bo‘lgan bo‘ladi: homilani ko‘tarish mashaqqatida, homilani dunyoga keltirish sinovida va tug‘ilgan bolani 2 yilgacha uyqusini buzib emizish muddatida ona yolg‘iz bo‘ladi.

Ota qanchalik mehribon bo‘lmasin, ayolining homiladorlikdagi azobini his qila olmaydi. Qanchalik mehribon bo‘lib ayoli yonida tursa-da, tug‘ruq azobini his qila olmaydi. Kechalari uyg‘onib bolasining beshigini tebratsa ham, u bu ishni ona kabi mehr bilan bajara olmaydi. Onaning shu 3ta ish orqali darajasi orttiriladi.

Silai rahmda ota-onaga yaxshilik qilishdan keyin birinchi o‘rinda opa-singillar aka-ukalardan oldingi o‘ringa qo‘yildi. Chunki opa-singillar doim shafqatli va mehribon bo‘lib kelgan. Buni tushungan faqihlarimiz bir masala aytadilar:

Singil ziyoratiga ketayotgan aka katta bug‘doyzor maydonning orqasida singlisi yashasa, bug‘doyzorni aylanib borguncha vaqt ketishi sababidan o‘sha bug‘doyzorni bosib o‘tib, payhon qilib bo‘lsa-da, singilni borib ko‘rishiga shariatimiz ruxsat bergen. Boshqa holatda hosilni payhon qilishga ruxsat yo‘q.

Ota-onasi tirik farzand – moli kasodga uchramaydigan tijoratchi misolidir

Bu mavzuda gap ketsa, o‘z hayotimda sodir bo‘lgan bir qissa doim yodimga tushadi. Umra ziyoratiga borganimda Masjidul-haromdan chiqar ekanman, nogironlar aravasida o‘tirgan juda nuroni otaxonqa ko‘zim tushdi. U kishining yoshi keksa, soch-soqollari oppoq, arab millatiga mansub edi. Men ularning yonlariga borib meni duo qilishlarini so‘radim.

Shunda u kishi mendan: «Ey bolam, otang hayotmi?» deb so‘radilar. U mahalda rahmatli ota-onam hayot edi. «Ha, otam bor» deb javob berdim. «Onang bormilar?» deganlariga ham ha deb javob berdim. Shunda u kishi tabassum bilan: «Unday bo‘lsa, ey bolam, sen katta savdogar ekansan. Tijoratingga mustahkam bo‘l, mustahkam bo‘l», dedilar. Men u kishining peshonasidan o‘pib yo‘limda davom etar ekanman, qulog‘imdan u odamning «Tijoratingga mustahkam bo‘l», degan gaplari ketmadi. Ha, ota-ona eng katta tijoratdir. Hatto hech qachon kasod bo‘lmaydigan tijoratdir.<sup>4</sup> Ota-onasi hayot kishilar buni yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun ular hayotligida g‘animat bilib, duolarini olishga harakat qilish kerak.

<sup>4</sup> <https://kukaldosh.uz/29/06/2022/8641>



Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi.

U kishi aytadilarki:

“Men Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan: “Alloh azza va jalla uchun eng mahbub ish qaysi?” -deb so‘radim.

“Vaqtida o‘qilgan namoz”,-dedilar.

“Undan keyin qaysinisi?”-dedim.

“Ota-onaga yaxshilik qilish”-dedilar.

“Undan so‘ng yana qaysi ish yaxshiroq?”-dedim.

“So‘ngra Allohnning yo‘lida jiddu jahd qilish”-dedilar”.

“Ana shularni aytdilar. Agar yana ziyoda so‘rasam, ziyoda javob berar edilar”, — dedilar .

Bu hadis sharifda ota-onaga yaxshilik qilish namoz o‘qishdan keyingi eng afza ish ekani ta’kidlanmoqda, hatto Allohnning yo‘lid jiddu jahd qilishdan ustun qo‘yilmoqda. Mana shundan bilamizki, ota-onag yaxshilik qilish, ularni xizmatini bajarish, ularni ulug’lash shu qadar buyuk ish ekan.

Islomda namoz dinning ustuni ekanini hammamiz yaxsh bilamiz. Ana o‘sha, dinimizga ustun bo‘lgan namoz ibodatidan keyin eng afzal ishlardan biri ota-onaga yaxshilik qilish ekan.

سَخْطِهِمَا فِي وَسَخْطِهِ الْوَالَّدِينَ رَضَا فِي الرَّبِّ رَضَا عَنْهُ اللَّهُ رَضِيَ عَمِّرُوا أَبْنَ عَنْ

الْطَّبَرَانِيُّ الْإِمَامُ رَوَاهُ

Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Nabiy sollallohu alayhi vasallam:

“Robbning roziligi ota-onaning roziligidadir. Robbning noroziligi ota-onaning noroziligidadir”, — dedilar”.

Bizda «Ota rozi-Xudo rozi» degan gap bor. Allohn ni rozi qilaman degan kishi Alloh taalo chizgan chegarada ota-onasini rozi qilishga harakat qilmog‘i lozim. Kim Alloh mendan norozi bo‘masin desa, Alloh taolo chizgan chegarada ota-onasini norozi qilmaslik uchun tirishmog‘i, harakat qilmog‘i lozim bo‘ladi.

Ota-onasiga yaxshilik qilgan farzandlarga jannat eshiklari ochilishi haqida Payg’ambarimiz alayhissalom shunday deganlar:

الْجَنَّةُ مِنْ بَابِنَ لَهُ فُتِحَ إِلَّا إِلَيْهِمَا مُحْسِنٌ وَهُوَ فَيُصْبِحُ، أَبْوَانِ لَهُ مُسْلِمٌ مِنْ مَا

(ما جَاءَهُ أَبْنُ وَالْإِمَامُ دَأْوَدُ أَبُو الْإِمَامِ رَوَاهُ)

ya’ni: “Qaysi bir musulmonning ota-onasi bo’lsa, ularga yaxshilik qilib tong ottirgan bo’lsa, Alloh taolo unga jannatning ikki eshigini ochadi”, – deganlar (Imom Abu Dovud va Imom Ibn Moja rivoyat qilganlar).



Demak, ota-onaning farzandi ustida haqlari juda ko‘p. Farzand ota-onani rozi qilish uchun qo‘lidan kelgancha harakat qilishi kerak. Yuqorida tanishib o‘tganimizdek, farz namozlarni ado qilishdan keyingi eng yaxshi amal ota-onaga yaxshilik qilishdir.<sup>5</sup> Farzand Allohning roziligidagi erishish uchun ham ota-onaga yaxshilik qilish, ularni xursand qilish, ularni rozi qilishi kerak ekan. Shu bilan birga farzand silai rahm borasida ham avvalo ota-ona, opa-singil, aka-uka va so‘ngi o‘rinda qarindoshlarga yaxshilik qilar ekan. Yana bir hadisda ota-onaga yaxshilik qilib tong orttirgan farzand uchun jannatdan ikki eshik ochilishini ham aytib o‘tilgani ko‘rdik. Demak, biz bu dunyoda ham oxiratda ham yaxshiliklar ustida yashashni xohlasak Allohga iymon keltirib farz amallarni bajarishdan keyin xolis ota-onamizga yaxshilik qilib, ularni roziliklarini topish uchun harakat qilishimiz lozim ekan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
2. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
3. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
4. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
5. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
6. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.
7. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
8. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
9. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.
10. [www.ziyonet.com](http://www.ziyonet.com)

<sup>5</sup><https://cyberleninka.ru/article/n/imom-buxoriy-asarlarida-axloqiy-tarbiya-haqidagi-g-oyalar>



11. Google
12. www.Vikepediya.com
13. “Al-Adab al-Mufrad” -Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Buxoriy
14. <https://kukaldosh.uz/29/06/2022/8641>
15. <https://cyberleninka.ru/article/n/bola-ta-lim-tarbiyasida-ota-onaning-tutgan-orni>
16. <https://cyberleninka.ru/article/n/imom-buxoriy-asarlarida-axloqiy-tarbiya-haqidagi-g-oyalar>.

